



AJER
AKADEMIC JOURNAL OF
EDUCATIONAL RESEARCH

ISSUE 7

**AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

December 2024

WWW.AJERUZ.COM



International Scientific Journal
AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
December 2024

Tashkent 2024

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Bekturdiyeva Marjona Qaxramon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich talim fakulteti talabasi

Anatatsiya. Siz ushbu maqolada raqamli ta‘lim muhitida boshlang‘ich ta‘limga innovatsion yondashuvlar bilan yondashish va o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish borasida ma‘lumotlar olasiz.

Abstract. In this article, you will learn about innovative approaches to elementary education in a digital learning environment and how to increase students interest in science.

Kalit so‘zlar : Raqamli ta‘lim, muammoli ta‘lim, Sun‘iy intellekt, elektron darsliklar va texnologiyalar.

Keywords: Digital education, problem-based learning, Artificial intelligence, electronic textbooks and technologies.

Kirish Bugungi kunda biz o‘z hayotimizning asosiy qismini virtual dunyoga o‘tkazayapmiz: kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar, smartfon va boshqa moslamalar. Biz u yerda suhbatlashamiz, do‘stlar orttiramiz, ishlaymiz, fotosuratlar jo‘natamiz, taassurotlar, fikrlarimizni almashamiz, o‘yinlardan foydalanamiz, qiziqarli filmlar ko‘ramiz, “like”lar bosamiz, malumotlar joylashtiramiz. Axborot resurslarining barcha toifadagi azosi hayotiga yosh bolalardan tortib, qariyalarigacha kirib borganligi–axborot texnologiyalari, zamonaviy jamiyatni qiziqtirgan barcha muammolarni hal qilishga qodir degan fikrni shakllantiradi. Elektron ta‘lim tizimi yangi imkoniyatlar va yangi topshiriqlarni yaratmoqda. Zarur imkoniyatlar qatoriga ta‘limga oid muammolarni hal qilish, ta‘lim shaklini tanlashni kengaytirish, bilimlarni uzatish manbalarni ko‘paytirish kiradi.

Mavzuning dolzarbligi Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo‘ylab hamma ta‘lim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi ya‘ni, zamonavilashuvga asos boladi. Raqamlashtirish, o‘rganilgan ta‘limot va bilimlarni almashish uchun imkoniyatlar yaratib, odamlarga kengroq ma‘lumot olish va kundalik hayotlarida to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Kelgusida, ta‘lim muhitida raqamlashtirish bilan bog‘liq katta o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Elektron ta‘lim tizimi yangi imkoniyatlar va yangi topshiriqlarni yaratmoqda. Asosiy imkoniyatlar safiga ta‘limga oid muammolarni hal qilish, ta‘lim shaklini tanlashni kengaytirish, bilimlarni uzatish, vositalarini ko‘paytirish kiradi. Raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta‘limdagi o‘rni va rolini anglash muhimligi, maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi va didaktikasi sohalaridagi zamonaviy tadqiqotlarda o‘z aksini topishi kerak. Bugungi kunda maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim integratsiyasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash muammolari kelgusida rivojlanish strategiyasini va unga yo‘naltirilgan yo‘nalishni

saralash bilan bog'liq izlanishlarga sabab bo'ladi. Kelgusida raqobatdosh ta'lim va tadqiqot modeliga o'tish uchun raqamli transformatsiya dasturi bundan buyon ishlab chiqilishi kerakligi aniq. Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynaydi, chunki ular o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O'quvchilarning ta'lim olish usullarini o'zgartiradi va ularga yangi ko'nikmalarni o'rganish imkonini beradi. Raqamli resurslar va o'quv jarayoni: raqamli resurslar, masalan, onlayn darsliklar, video darslar va interaktiv o'yinlar, o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlashda yordam beradigan ko'plab imkoniyatlar yaratadi. Bu resurslar orqali o'quvchilar tajribali va yuqori sifatli malumotlardan foydalana oladi. O'quvchilarning faoliyatini oshirish-raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ishlashga va ijodiy fikrlashga undovchi muhitda oqiydilar. Bu ularga o'z fikrlarini ifoda etish, masalalarni hal qilishda yangi yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar o'qituvchilar uchun darslarni boshqarishni osonlashtiradi va o'quvchilarning yutuqlarini kuzatib borish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, o'qituvchilar uchun bilimlarni individuallashtirish va o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash jarayonida katta yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni foydalanuvchilarga yetarlicha talim berish va ularni katta ehtiyotkorlik bilan boshqarish zarurati bor, chunki bu sohada xavflar ham mavjud. Ta'lim va tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar yutuqlarining kafolatlari va keyinchalik katta sinflarda ham muvaffaqiyatli o'qish kafolatlari haqida so'z yuritilgan. Ta'lim muhitini raqamlashtirish turli usullarda amalga oshirilishi mumkin: -mavjud o'quv materiallarini ,shu bilan birga ma'ruzalar, prezentatsiyalar, darsliklar, mustaqil ish uchun topshiriqlarni va bilimlarni boshqarish vositalarini elektron muhitni tarjima qilish: o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro aloqalar uchun interaktiv elektron muhitni shakllantirish, shu jumladan o'qituvchilar uchun elektron sinflar yaratish, vebseminarlar, munozarli forumlar o'tkazish va yangi turdagi o'quv vositalarini yaratish: elektron darsliklar, elektron muammoli kitoblar, video ma'ruzalar, elektron topshiriqlar bazasi, kompyuter o'yinlari: - elektron muhit imkoniyatlaridan foydalangan holda ta'limning chuqur yangi shakllarini yaratish– axborotni hayoliy uzatish spektrini kengaytirish, rolli o'yinlar bosqichida turli vaziyatlarni modellashtirish, raqobatbardosh o'yinlarga taqlid qilish va hk:

Suniy intellekt imkoniyatlarini o'quv jarayoniga tadbqiq qilish lozim. Hozirgi kunda ta'lim tashkilotlarining aksariyat qismida ta'limni raqamlashtirish jarayonining dastlabki shakli amalga oshirilmoqda. Bu o'quvchilarning o'quv materiallariga kirishini yegillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmagan o'quv yuklamasini kamaytirish, oquv tartibi va o'quv jarayoni mazmuni ustidan nazoratni osonlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, ushbu jarayon uzoqdan boshqarish pultini sezilarli darajada kengaytirishga imkon yaratmoqda. Maktab talimining zamonaviy shakli va mazmuni avvalgi ta'lim tizimidan tubdan farq qiladi. Ta'limni raqamlashtirish-bu elektron tizimga

o‘tish bosqichining nomlanishi. Hozirgi vaqtda kelajakdagi o‘zgarishlar haqida bir nima gapirish mushkul, ammo, hozir biz mana shu xato va kamchiliklarni tuzatishimiz hamda o‘zgartirishimiz mumkin.

Muhokama qismi

Keyingi davrda o‘quv materiallari, rejalar, sinf jurnallari-bularning hammasi onlayn korinishlarga o‘tadi. Hozirgi kunda ham bilim olish uchun talaygina onlayn platforma va dasturlar yaratilgan. Mana shular yordamida o‘quvchilar uydan chiqmasdan, internetdan foydalangan holda darslarni o‘rganishlari hamda onlayn olimpiada va testlar orqali bilimlarini tekshirish imkoniyatiga egalar. Hozirgi kunda maktablar zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmoqda. Har bir ta‘lim dargohlarida axborot tizimiga kirish uchun kompyuterlar, elektron doskalar bilan bir qatorda optik tolali internet bilan ham ta‘minlanmoqda. Hozirgi kun o‘qituvchilar yangilanayotgan va raqamlashtirilayotgan ta‘lim tizimini yetarlicha o‘rganishlari lozim. Negaki, ushbu kasb mohiyati chuqur o‘zgaradi. Talim tizimining raqamlashtirilishi o‘quv materiallarini yakka tartibda o‘rganish imkonini beradi. Mana shu jarayonda o‘qituvchi ko‘makchi, yo‘naltiruvchi vazifalarini bajaradi. Raqamli texnologiyalar bilan tashkil qilinadigan talim tizimi yakka tartibda ishlashni nazarda tutganligi sababli, o‘quvchilar yoshligidan bilimga intilishi, o‘z kuchi, mehnati bilan erishishi kerakligini tushunishadi. Ta‘lim tizimining bunday raqamlashtirilishi kelgusida o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini yanada mustahkamlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rangli tasvirlar insonning ma‘lumotni yaxshiroq yodda saqlab qolishiga yordam berar ekan. Bundan tashqari, ijodiy qobiliyatlarni yanada o‘stirishga ham katta hissa qo‘shadi. Shunday ekan o‘quv qo‘llanmalarini raqamli texnologiyalar orqali rang-barang tarzda berilishi o‘quvchilar qiziqishini orttirishi bilan bir qatorda ma‘lumotlarni xotirasida yaxshi saqlab qolish imkonini beradi. Aynan mana shu o‘z navbatida ta‘lim sifatini oshishiga katta hissa qo‘shadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ayitishimiz mumkinki, hozirgi sharoitda shaxsni shakllantirish avvalgi an’anaviy usullardan ancha farq qiladi. Bu globallashtayotgan axborot makonida uni boshlang‘ich ta‘lim integratsiyasida tatbiq qilishning darajasi jihatidan yangi modelini ishlab chiqishni, hozirgi sharoit uchun zarur bolgan va ularga mos keladigan umuman yangi usullarini o‘zida jamlagan metodik ishlarni shakllantirishni talab qiladi. Nima bo‘lganida ham, zamonaviy pedagogik raqamli texnologiyalarida to‘g‘ri foydalanish boshlang‘ich ta‘lim yoshidagi o‘quvchilarning yutuqlarini kafolatlaydi va kelgusida yuqori sinflarda muvaffaqiyatli o‘qishini ta‘minlaydi. Raqamlashtirilgan ta‘lim tizimidan foydalanish, boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarining kelgusida raqamlashgan jamiyatga kirishishi uchun maqsadli auditoriya a‘zosi bo‘lishi uchun tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Bu, albatta, maktabning ta‘lim bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga, qo‘shimcha qiymat yaratishga va o‘quvchilarni jalb

qilishga olib keladi. Ikkinchidan ta'limning holatini jahon standartiga moslashtiradi. Bugungi kunda yosh avlodni androidlardek, oqishga bo'lgan qiziqishini oshirishda raqamli ta'lim muhitining yaratilishi ta'lim sifatida ijobiy tasir ko'rsatadi. Dars davomida, mavzuni mustahkamlashda online testlardan foydalanish, o'quvchilar uchun sog'lom raqobat muhitini yaratadi. Ayniqsa o'quvchilar mustaqil ravishda malumotlarni izlash, tahlil qilishga bo'lgan intilishi ortadi. Zamonaviy adabiyotlar, darsliklarda QR kod olish imkoniyatini ma'lumotlarni batafsil yetkazish imkonini beradi. Yildan yilga darsliklardagi ilmiy yangiliklar ortib bormoqda. Bu ilmiy yangiliklar xalqaro baholash dasturlari PISA, STEAM, PIRLS nizomlariga to'liq javob beradigan darsliklar deb ayta olish mumkin. Bu kabi darsliklar bilan birgalikda dars o'tish uchun metodik qo'llanmalarni xam birdek yetkazib berish o'qituvchilar uchun xam qulaylik yaratadi. Dars o'tish jarayonini har tomonlama qo'llab quvvatlash maqsadida hukumatimiz tomonidan darsliklarning yillik foydalanish to'lovi bepul etilib belgilandi. Bu ham ta'limga qaratilgan e'tiborning natijasi o'laroq yuzaga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. / www.ziyo.net.
2. Jabborova O.M, Sapparboyeva D. Boshlang'ich ta'limda mustaqil talini tashkil etish metodikasi Chirchiq 2023.y
3. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Qayumho'jayeva Fazilat Dilshod qiz. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qishga bo'lgan munosabati//Journal of integrated education and research. Volume2 ,ISSUE 1 January 2023.pp 150-154.
4. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Rasulova Arofat Zafarjon qizi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni aniq fanlarga qiziqishini oshirish metodikasi//Conferencea virtual international. ARTICLES 2023.march pp 163-172.
5. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Xamraqulova Orasta Alisherv qizi. Inklyuziv ta'lim va uning bugungi kundagi rivojlanishi//Conferencea;2022;9thl CARHSE-england decabr108-111.



AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
international scientific journal
7-son

Nashr qilingan sana: 27.12.2024.
Shrift: "Times New Roman".

“ACADEMIC JOURNAL” MCHJ

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172